1973-YILGI CHILI HARBIY TO'NTARISHI: ICHKI IQTISODIY INQIROZ VA SOVUQ URUSH GEOSIYOSIY RAQOBATI KESISHGAN NUQTA

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIGI AKADEMIYASI

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi, 1-bosqich

Talaba: ***To'xtasinov Akbarali Maxpiraliyevich***

Ilmiy rahbar: ***Qo‘ysinova Fazilat Oripovna***

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada 1973-yil 11-sentabrda Chilida sodir bo'lgan harbiy to'ntarishning siyosiy, iqtisodiy va xalqaro omillari keng tahlil qilinadi. Sotsialist prezident Salvador Allende hukmronligi davrida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, ularning makroiqtisodiy oqibatlari hamda Sovuq urush sharoitida AQSh va SSSR o'rtasidagi geosiyosiy raqobat kontekstida yuzaga kelgan inqiroz ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, general Augusto Pinochet boshchiligidagi harbiy rejimning siyosiy xususiyatlari va uning tarixiy bahosi ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada iqtisodiy beqarorlik, tashqi aralashuv va harbiy to‘ntarish o‘rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligi kompleks metodologiya asosida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: **harbiy to'ntarish, sotsializm, neoliberalizm, Sovuq urush, inflyatsiya, geosiyosat, pul emissiyasi, defolt, Pinochet, Allende.**

KIRISH

1973-yil 11-sentabr kuni Santiago shahrida sodir bo'lgan harbiy to'ntarish XX asr Lotin Amerikasi tarixidagi eng muhim burilish nuqtalaridan biri bo'ldi[1]. Ushbu voqea nafaqat ichki siyosiy kurash natijasi, balki global miqyosdagi Sovuq urush qarama-qarshiligining mahsuli ham edi. Shu boisdan, bu hodisani yagona bir omil doirasida emas, balki ko'p qirrali tarixiy jarayon sifatida o'rganish zarur.Chili to'ntarishi o'zining xususiyatiga ko'ra noyob hodisadir: unda demokratik yo'l bilan saylangan sotsialist

[1] /2020/09/11/pinochet-hukmronligi-diktaturamidi-harbiy-rejimmi-chilini-iqtisodiy-inqirozdan-saqlab-qolgan-harbiy-isyon-haqida/

hukumat qulatildi, AQSh maxfiy operatsiyasi amalga oshirildi, va neoliberal iqtisodiy eksperiment boshlab yuborildi-bularning barchasi bir mamlakatning taqdirida kesishdi.Mazkur maqolaning maqsadi – Allende hukmronligi davridagi iqtisodiy siyosat, ijtimoiy transformatsiya jarayonlari hamda tashqi kuchlar ta'sirini kompleks tahlil qilish orqali to'ntarish sabablarini aniqlash va Pinochet davrining tarixiy merosini obyektiv baholashdir.

Allendening hokimiyatga kelishi va ideologik burilish. 1970-yilgi prezident saylovlarida "Xalq birligi" (Unidad Popular) koalitsiyasi nomzodi Salvador Allende g'alaba qozondi. U Lotin Amerikasida demokratik yo'l bilan saylangan ilk marksistik prezident sifatida tarixga kirdi. Bu voqea nafaqat Chili uchun, balki butun dunyo siyosiy hayoti uchun misli ko'rilmagan hodisa edi: yadroviy qurollangan ikkita superqudrat orasidagi keskin raqobat fonida, ba’zi davlatlar saylov yo'li bilan sotsialistik yo'lni tanlab oldi.Allende hukumatining asosiy maqsadi "insoniy qiyofadagi sotsializm" modelini yaratish edi. Bu model sovet modeli kabi qattiq markazlashtirishni emas, balki demokratik institutlar va erkin saylovlarni saqlab qolgan holda iqtisodiy tenglikka erishishni ko'zda tutar edi. Dasturning asosiy ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat edi: strategik sanoat tarmoqlarini milliylashtirish; xorijiy kompaniyalar aktivlarini davlat tasarrufiga o'tkazish; ijtimoiy tenglikni kuchaytirish; davlat tomonidan subsidiyalarni kengaytirish va qashshoqlikni tugatish.Biroq bu siyosat AQSh tomonidan chuqur xavotir bilan qabul qilindi. Chunki Kubadan keyin yana bir Lotin Amerikasi davlatining sotsialistik yo'lga o'tishi Vashington uchun strategik geosiyosiy xavf sifatida baholandi. Kubada Fidel Kastro rejimi o'rnatilganidan so‘ng AQSh va Kuba o'rtasida uzoq yillar davomida aloqalar uzilgan edi. Chili bilan ham shu holat qaytarilishi mumkin edi.

Iqtisodiy siyosat va makroiqtisodiy inqiroz. Allende o'z hukmronligining dastlabki kunlaridanoq radikal iqtisodiy qarorlar qabul qildi. U 500 ga yaqin yirik korxonalarni, xususiy banklarni chet ellik mulkdorlardan hech qanday tovon puli

to'lamay tortib olib, milliylashtirdi. Ushbu qadam boshida aholining ish haqi va pensiyalarini oshirishga imkon berdi. Ammo, ish haqlarining o'sishi ishlab chiqarish samaradorligi bilan emas, balki pul emissiyasi orqali ta'minlanardi – bu esa kelajakdagi moliyaviy inqirozning asosini qo‘ydi.Iqtisodiy siyosatning asosiy muammolariDavlatning iqtisodiyotni boshqarish urinishlarida bir qancha tizimli xatolar ro'y berdi. Birinchidan, 500 dan ortiq yirik korxona davlat tasarrufiga o'tkazildi – bu qadam xususiy investitsiya muhitining keskin yomonlashuviga olib keldi. Xorijiy investorlar va mahalliy tadbirkorlar o'z kapitallarini mamlakatdan chiqarib ketdi.Ikkinchidan, byudjet taqchilligini yopish uchun pul massasi sun'iy ravishda oshirildi. Natijada inflyatsiya jadal tezlashdi va 1973-yilga kelib yiliga 800 foizga yetdi – bu tarixdagi eng yuqori inflyatsiya ko'rsatkichlaridan biri sifatida qayd etilgan.2.Uchinchidan, narxlarni muzlatish siyosati qo'llanildi. Sun'iy ravishda past belgilangan narxlar tufayli tovarlar bozordan g’oyib bo'la boshladi. Allende, shuningdek, 15 yoshgacha bo'lgan bolalar har kuni davlatdan tekin sut olishlari kerak degan siyosat yurgizdi – bu esa sut ishlab chiqaruvchilarga og'ir moliyaviy yukni yukladi va ular narxlarni ko'tarishga majbur bo'ldi.1971-yil dekabrida Chili poytaxti Santyagoda ayollar oziq-ovqat tanqisligiga qarshi norozilik bildirish uchun ko'chalarga chiqdi. Tarixga "Bo‘sh kostryulkalar marshi" nomi bilan kirgan bu ommaviy namoyish iqtisodiy siyosat to'g'risidagi tashvishlarning birinchi ochiq ifodasi bo'ldi.To'rtinchidan, 1972-yilda mis narxining jahon bozorida qulab tushishi Chili iqtisodiyotini yanada zaiflashtirdi. Mis mamlakatning asosiy eksport mahsuloti bo'lib, davlat daromadlarining katta qismini tashkil etardi. Narxning pasayishi davlat byudjetini qattiq silkitdi va hukumatni 1972-yilda texnik defolt e'lon qilishga majbur qildi.

TASHQI OMIL: SOVUQ URUSH VA AQSH SIYOSATI

Sovuq urush tushunchasi va tarixi. "Sovuq urush" atamasi birinchi bo'lib amerikalik yozuvchi va tanqidchi Jorj Oruell tomonidan 1945yilda yozilgan "Sen va

[2] https://daryo.uz/.

atom bombasi" maqolasida ishlatilgan.3 Maqolada yozilishicha, atom bombasiga ega davlatlar bu qurolni bir-biriga qarshi qo'llamaydi, ammo har doim o'zaro "sovuq urush" holatida bo'ladi.Sovuq urushning amaliy boshlanishi esa britaniyalik davlat arbobi Uinston Cherchill nutqidan keyingi davr bilan bog'liq. Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyoda ikkita yirik kuch — SSSR va AQSh — yetakchi o'rinni egalladi. Ushbu ikki davlat urushdan jiddiy zarar ko'rishiga qaramay, o'zini tez tiklay oldi va xalqaro maydonda yetakchilik uchun raqobatga kirdi. Bu raqobat qurollanish poygasiga, yadroviy texnologiyalar yaratilganida esa raketa va atom qurollarining ommaviy ishlab chiqarilishiga olib keldi. AQShning Chili siyosati Sovuq urush davrida AQSh Lotin Amerikasini o'z ta'sir doirasi deb hisoblar edi. Allende hukmronligi esa SSSR bilan yaqinlashuvni kuchaytirgani sababli Vashington uchun maqbul emas edi. Prezident Richard Nikson ma'muriyati va Allende hukumatini iqtisodiy va siyosiy jihatdan izolyatsiya qilish strategiyasini yuritdi. Bu strategiyaning asosiy vositalari orasida Chilining xalqaro kredit liniyalarini qisqartirish, xalqaro moliyaviy institutlar (XVF, Jahon banki) orqali bosim o'tkazish va ichki muxolifatni bilvosita qo'llab-quvvatlash kiradi. Keyinchalik oshkor bo'lgan CIA hujjatlarida ushbu jarayonni "Allende hukumatini iqtisodiy bo'g'ib o'ldirish" operatsiyasi sifatida ta'riflangan. Shu tariqa Chili ichki inqirozi global geosiyosiy raqobat bilan bevosita kesishdi.

HARBIY TO'NTARISH VA PINOCHET REJIMI

Iqtisodiy qulash fonida Lotin Amerikasidagi an'anaviy ta'sirli kuchlardan bo'lgan harbiylar siyosiy jarayonga aralashishga tayyor turishardi. Taqdirning hazilini qarangki, aynan shu muhim kunlarda Salvador Allende generalning antikommunistik qarashlarini bilsa-da, Augusto Pinochetni Chili armiyasining oliy bosh qo'mondoni etib tayinladi. Oradan uch hafta o'tar-o'tmay, yangi bosh qo'mondan XX asrning eng mashhur harbiy to'ntarishlaridan birini amalga oshirdi.1973-yil 11-sentabr kuni general Augusto Pinochet boshchiligidagi harbiy kuchlar samolyotlardan bombalash orqali prezident saroyini egalladi. Salvador Allende o'sha kuni halok bo'ldi-rasmiy versiyaga

[3] www.orwellfoundation.com

ko'ra o'z joniga qasd qilgan, biroq bu versiya hamon bahsli bo'lib qolmoqda. Harbiy to'ntarish shiddatli va qonli tarzda amalga oshirildi.Pinochet hokimiyatni qo'lga olgach, parlament tarqatib yuborildi, siyosiy partiyalar taqiqlandi va ommaviy repressiyalar boshlandi. Axborot agentliklari xunta tomonidan konsentratsion lagerga aylantirilgan Santyagodagi «Nacional» stadionining fotosuratlarini butun dunyoga tarqatdi. Bu yerda har kuni minglab odamlar qatl qilindi. 13-sentabr kuni Pinochet matbuot bilan suhbatda: "Barcha urinishlarni qattiqqo'llik bilan bostirish niyatida ekanligini" e'lon qildi.Neoliberal iqtisodiy burilish: "Chikagolik yigitlar" mo'jizasi Ko'plab qon to'kkan Pinochet shu bilan birga Chili iqtisodiyotini tubdan o'zgartirdi. Mamlakatdagi iqtisodiy sektorlarga "Chikagolik yigitlar", ya'ni AQShning nufuzli Chikago universiteti professori Milton Fridman maktabida tahsil ko'rgan yosh iqtisodchilar tayinlandi. Mamlakat moliya vaziri atigi 30 yoshda edi. Bu guruh iqtisodiy liberalizatsiya, xususiylashtirish va erkin savdo siyosatini izchil amalga oshirdi.Natijada bozor iqtisodiyoti liberallashtirildi, davlat korxonalari xususiylashtirildi va savdo erkinlashtirildi. 1980-yillarda iqtisodiy o'sish tiklandi va Chili qit'aning eng barqaror iqtisodiyotlaridan biriga aylandi. Biroq bu o'sish ijtimoiy tengsizlikning keskin kuchayishi va ijtimoiy himoya tizimining zaiflashuvi evaziga qo'lga kiritildi – bu qarama-qarshilik bugungi kunda ham davom etmoqda.

DIKTATURA VA HARBIY REJIM: NAZARIY TAHLIL

Siyosatshunoslikda diktatura va harbiy rejim tushunchalari farqlanadi. Diktatura – bu davlat hokimiyatining bir shaxs yoki tor doiradagi guruh qo'lida to'planib, nodemokratik usullar, zo'ravonlik va qatag'onlar orqali boshqariladigan siyosiy rejimdir. Bunda konstitutsiyaviy huquqlar toptalib, muxolifat va erkinlik cheklanadi.Harbiy rejim esa davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi favqulodda vaziyatlarda-urush, to'ntarish-konstitutsion huquqlarni cheklab, boshqaruvni harbiy organlarga o'tkazish tizimidir. Bunda komendantlik soati, harakatlanish cheklovlari va qat'iy harbiy intizom joriy etiladi. Pinochet rejimi amalda ikkala tushunchaning ham

xususiyatlarini o'z ichiga olgan: u harbiy to'ntarish orqali hokimiyat qo'lga kiritilgani va harbiy intizomga asoslangan boshqaruv tizimini o'z ichiga olgan.

TARIXIY BAHO VA SIYOSIY MEROS

Pinochet rejimi 1990-yilgacha, ya'ni 17 yil davom etdi. Iste'fodan keyin u Chilida va xorijda bir necha bor hibsga olingan, ammo qarilik va sog'lig'ining yomonligi sababli sudlanmadi. U 2006-yilda 91 yoshida vafot etdi.Bugungi kunda Chili jamiyati Pinochet merosiga nisbatan chuqur ikki qutbga bo'lingan. Bir tomondan, uni iqtisodiy islohotchi va Chilini kommunizm xavfidan himoya qilgan kishi sifatida baholovchilar bor. Ikkinchi tomondan, uni inson huquqlarini qo'pol ravishda buzgan, 3000 dan ortiq kishini qatl ettirgan va minglab kishilarni qiynoqqa solgan qonli diktator sifatida ko'ruvchilar mavjud.Ushbu tarixiy ziddiyat hatto rasmiy ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda. Yaqinda Chili maktab darsliklarida Pinochet hukmronligi "diktatura" emas, balki "harbiy rejim" deb nomlanishiga o'zgartirildi. Darsliklarda uning "Demokratiya demokratiya bo'lib qolishi uchun uni vaqti-vaqti bilan qon bilan yuvib turish kerak" degan mashhur iborasi ham o'chirib tashlandi. Bu holat tarixiy xotira siyosatining qanchalik siyosiylashganligi va bugungi kunda ham Chili jamiyatida ushbu mavzuning naqadar og'riqli ekanligini ko'rsatadi.Har yili 11-sentabr kuni Chili ko'chalarida tartibsizliklar sodir bo'ladi. Ko'chalarda o'lgan va bedarak yo'qolgan yaqinlarining portretlarini ko'tarib yuradigan odamlar uchun endi rasmiy jinoiy javobgarlik yo'q. Ammo xotira va azob qolmoqda.

XULOSA

1973-yilgi Chili harbiy to'ntarishi ichki iqtisodiy beqarorlik, siyosiy polarizatsiya va global geosiyosiy raqobatning murakkab kesishuvida yuzaga kelgan ko'p qirrali tarixiy hodisadir. Allende tajribasi davlat tomonidan boshqariladigan sotsialistik modelning bozor mexanizmlari bilan muvozanatsiz qo'llanilishi qanday makroiqtisodiy inqirozga olib kelishini ko'rsatdi. Ish haqlari va ijtimoiy xarajatlarning ishlab chiqarish samaradorligidan ustun o'sishi, pul emissiyasi orqali moliyalashtirish va narxlarni

sun'iy ravishda muzlatish – bu siyosatlar to'lqin-to'lqin iqtisodiy inqirozga olib keldi.Pinochet davri esa iqtisodiy liberalizatsiya va siyosiy repressiya o'rtasidagi murakkab va ziddiyatli bog'liqlikni namoyon etdi. "Chikagolik yigitlar" tajribasi iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lgan bo'lsa-da, bu muvaffaqiyat demokratiya va inson huquqlarini toptalishi evaziga qo'lga kiritildi.Chili tajribasi xalqaro munosabatlar nazariyasida bir qancha muhim masalalarni ochib beradi: kichik davlatlarning Sovuq urushdagi geosiyosiy zaifligi; iqtisodiy model tanlovining siyosiy barqarorlikka ta'siri; tashqi aralashuv va suverenitet masalasi; hamda tarixiy xotira va siyosiy legitimlik muammolari.

Shunday qilib, 1973-yil voqealari nafaqat Chili, balki butun Lotin Amerikasi tarixida ideologik qarama-qarshiliklar va global kuchlar siyosatining yorqin namunasi bo'lib qolmoqda.